

YASHIL IQTISODIYOTDA CHIQINDINI QAYTA ISHLAB CHIQARISH

ПЕРЕРАБОТКА ОТХОДОВ В ЗЕЛеной ЭКОНОМИКЕ

RECYCLING WASTE IN THE GREEN ECONOMY

Xayitov Marvarbek Sherbekovich

Buxoro Davlat Texnika Universiteti 1 bosqich magistranti

Nabiyeva Feruza Ravshanovna

Buxoro Davlat Texnika Universiteti "Xizmat ko'rsatish va raqamlashtirish fakulteti

Iqtisodiyot va menejment kafedrasida 2 bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolani yozishdan maqsad ekologik xavflarni va ekologik tanqislikni kamaytirishga qaratilgan va atrof-muhitni buzmasdan barqaror rivojlanishni maqsad qilgan iqtisodiyot. U ekologik iqtisodiyot bilan bog'liq bo'lib ayni damda chiqindi qayta ishlash texnologiyasi ko'zda tutilgan lekin bunda asosan siyosiy termin sifatida foydalaniladi "Yashil" iqtisodiyotda chiqindilarni qayta ishlash inson va tabiat o'rtasida munosabatlarni saqlash va rivojlantirishni o'z ichiga olgan iqtisodiy fanning yo'nalishi, atmosferaga xavf tug'dirmasdan odamlarning farovonligini oshirishga qaratilgan iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish usuli sifatida tan olindi. "Yashil" iqtisodiyot tizimining yo'nalishlari quyidagilardan iborat

- 1) qayta tiklanadigan energiya manbalarini joriy etish;
- 2) chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish;
- 3) suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish;
- 4) "toza" transportni rivojlantirish;
- 5) qishloq xo'jaligida organik dehqonchilik;
- 6) uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida energiya samaradorligi;

7) ekotizimlarni saqlash va samarali boshqarish. Ushbu maqolada "yashil" iqtisodiyotning muhim komponenti hisoblangan chiqindilarni boshqarish tizimi va ulardan samarali foydalanish muammolari ko'zda tutgan holda shu muammoni yechimi topishga harakat qiladi.

Kalit so'zlar: Yashil iqtisodiyot, Aylanma iqtisodiyot, Chiqindilarni boshqarish iqtisodiyoti, qattiq chiqindi, yumshoq chiqindi, resurslardan oqilona foydalanish, iqlim o'zgarishi, barqaror rivojlanish.

XX asrning oxiridan boshlab butun dunyo "yashil iqtisodiyot" ga o'tdi, bu bir qator muhim maqsadlarga erishish imkonini beradi: birinchidan, atrof-muhitni salbiy antropogen ta'sirlardan himoya qilish; ikkinchidan, tadbirkorlik va boshqa iqtisodiy faoliyatning yangi yo'nalishlarini, shu jumladan, ijtimoiy rivojlanish manfaatlarini hisobga olgan holda davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish orqali rivojlantirish; uchinchidan, globallashtirishning yangi darajasiga o'tish, bunda dunyo Yer resurslarini

himoya qilish uchun birlashadi. Shuningdek bugungi kunga kelib Yashil iqtisodiyot tendensiyasi orqali bir qancha islohotlar olib borilmoqda . Bulardan biri chiqindilarni qayta ishlab chiqarish desak mubolag`a qilmagan bo`lamiz.

Chiqindilarni boshqarish iqtisodiyoti - bu, aksincha, tabiatdagi moddalarning yopiq aylanishlari misolida qurilgan va ulardan foydalanish bosqichining oxirigacha mahsulot va ular tarkibidagi xom ashyoning qiymatini maksimal darajada saqlashga qaratilgan modeldir. Bunday tizimga o'tish yangi ish o'rinlarini yaratish, xarajatlarni tejash va atrof-muhit ifloslanishining oldini olish orqali nafaqat ekologik, balki ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarni ham xizmat qiladi.

Ushbu maqolada O'zbekistonda chiqindilarni oqilona boshqarish iqtisodiyotga o'tish jarayonini tashkil etishda asosiy muammolar va ularning ilmiy asosdagi yechimlarini aniqlashga e'tibor qaratamiz hozirgi kunga kelib eng asosiy yo`nalish hamda muammo ham shunda . Bunda Yevropa Ittifoqi va unga a'zo davlatlari va respublikamizda erishilgan tajribalarga, shuningdek, butun dunyoda chiqindilarni boshqarish sohasidagi yaxshi amaliyot namunalariga asoslanamiz.

Chiqindilarni boshqarish iqtisodiyoti O'zbekistonda shakllanayotgan yashil iqtisodiyotning asosidir. Eng muhim muammolardan biri chiqindilarni boshqarish holatini har taraflama o'rganish, dastlabki vaziyatni aniqlash, chiqindilarni boshqarish iqtisodiyotini shakllantirishga harakat qilish zarurligini asoslashdir. Chiqindilar boshqarish sohasida aylanma iqtisodiyot uchun o'sishning turli nuqtalari va har bir holatda ko'rib chiqilishi kerak bo'lgan to'siqlarni aniqlash zarur.

Oxirgi yuz yil ichida ko'payib borayotgan mamlakatlararo iqtisodiy rivojlanishi tabiiy resurslardan foydalanishning ko'rilmagan darajada oshishiga olib keldi. Yevropa, Shimoliy Amerika va undan keyin dunyoning boshqa ko'plab mintaqalaridagi iqtisodiy o'sish ta'sirida global yalpi ichki mahsulot 1900-yildan beri 25 barobar o'sdi, bu esa jahon resurslarini qazib olishning o'n baravar oshishiga olib keldi Bu tendensiyalar kelgusi o'n yilliklarda ham davom etishi mumkin, chunki Osiyo va boshqa qit'alarining o'sib borayotgan aholisi sanoatlashgan hududlardan iste'mol usullarini tobora ko'proq qabul qilmoqda.

Global YaIM 2010-2050 yillar o'rtasida uch baravar ko'payishi prognoz qilinmoqda va 2030 yilga kelib resurslar iste'moli ikki baravar oshishi mumkin. Ko'pgina mamlakatlar uchun bu dinamika tabiiy resurslardan foydalanish xavfsizligi va global resurslarni nazorasiz iste'mol qilishning katta atrofmuhitga ta'siri haqida jiddiy xavotirlarni keltirib chiqardi. Har qanday mamlakat iqtisodiyoti tabiiy resurslar va materiallar, jumladan, suv, ekinlar, yog'och, metallar, minerallar va energiyadan uzluksiz foydalanishga bog'liq va ko'p hollarda bu materiallarning muhim qismi chetdan keltiriladi.

Ikkinchi muammo bu qaramlik zaiflikning kuchayib borayotgan manbasiga aylanishi mumkin, chunki tabiiy resurslar uchun o'sib borayotgan global raqobat allaqachon resurslar narxining sezilarli darajada oshishiga va narxlarning o'zgaruvchanligiga olib keladi berdi.

Birinchidan, respublikamizda chiqindilarni qayta ishlash jarayonini qo'llab-quvvatlash uchun moliyaviy va infratuzilmaviy muammolar mavjud. Chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirishdan tushgan mablag'lar miqdori chiqindilarni qayta ishlash bo'yicha to'liq mintaqaviy infratuzilmani yaratishga imkon bermaydi.

Ma'lumot o'rnida: Respublika hududida 2019-yil holatiga ko'ra, umumiy quvvati yiliga 894 ming tonna qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlaydigan 183 ta korxonalar mavjud. Taqqoslash uchun, Fransiyada 2.3 mln tonna quvvatga ega 300 dan ortiq korxonalar faoliyat yuritadi.

Shu sababli mazkur rag'batlantirish xalqaro moliya institutlarining imtiyozli mablag'lari hisobidan amalga oshirib kelinmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan joriy yilning 2-fevral kuni o'tkazilgan yig'ilishda import qilinadigan texnika, butlovchi va ehtiyot qismlar bo'jxona bo'jidan 3 yil muddatga ozod etilishi, saralash va qayta ishlash texnikalari xaridi uchun 5 yilgacha imtiyozli kreditlar ajratilishi va ularning qayta moliyalashtirish stavkasidan oshgan qismi qoplab berilishi, bu ishlar uchun xalqaro moliya institutlarining imtiyozli mablag'lari hisobidan 5 yil muddatga bosqichma-bosqich 500 mlrd so'm kredit ajratilishi belgilab berilgan.

Xorijiy mamlakatlarda mazkur masalani hal qilishda Chiqindilarni boshqarish jamg'armasi tashkil etish muhim o'rin tutadi. Bunday turdagi jamg'armalar ekologiya sohasidagi huquqbuzarliklar uchun undirilgan jarimalar, ruxsatnoma va litsenziya uchun to'langan mablag'lar, xorijiy va mahalliy grantlar, subsidiyalar hisobidan moliyalashtiriladi va jamg'arma mablag'lari asosan, chiqindilarni boshqarish dasturlarini amalga oshirish, xususiy korxonalarni qo'llab-quvvatlash uchun sarflanadi.

Ikkinchidan, chiqindilarni qayta ishlash sohasida raqobat muhitini yaratish, chiqindilardan qayta ishlangan mahsulotlarga nisbatan talabni rag'batlantirish mexanizmlari mavjud emas.

Xorijiy davlatlarda qayta ishlangan materiallardan foydalangan holda olingan tovar va xizmatlar bozorini rag'batlantirish maqsadida ushbu mahsulotlarga nisbatan davlatning "yashil xaridi" tizimidan foydalanish imkoniyatlarini tartibga soluvchi qonunchilik bazasi yaratilgan.

Masalan, Xitoyda chiqindilarni qayta ishlash va qayta ishlangan mahsulotlardan foydalanishga ko'maklashish maqsadida davlat idoralari, davlat maktablari, davlat korxonalari va tashk

ilotlari hamda harbiy idoralar imtiyozli ravishda qayta ishlangan mahsulotlarni sotib olishi qonun bilan belgilangan.

Uchinchidan, chiqindilarni qayta ishlashdan ko'ra ularni yo'q qilishning boshqa muqobil usullaridan foydalanish amaliyoti saqlanib qolmoqda.

Xususan, mamlakatimizda chiqindilarni asosan poligonlarga joylashtirish yoki ularni yoqish usullaridan keng foydalaniladi. Qayd etish kerakki, poligonlarga chiqindilarni joylashtirish muammoning yechimi bo'lmaydi. Sababi poligonlarga joylashtirilgan chiqindilar atrof-muhitga zarar keltiruvchi asosiy manbalardan biridir.

Ma'lumot uchun: Shisha butilka – 1 mln yil, plastik ichimliklar idishlari – 450-yil, bir martali ishlatiladigan tagliklar – 500-800-yil, alyuminiy konserva – 80-200-yil, batareyalar – 100-yil, kauchukli etik – 50-80 yil, plastik stakanlar – 50 yil, teri – 50 yil, qalay konserva – 50 yil, neylon mato – 30-40 yil, charm poyabzal – 25-40 yil, yog'och – 10-15 yil, sigaret qoldiqlari – 10-12 yil, jun kiyimlar – 1-5 yil, sut qutilari – 5 yil, arqonlar – 3-14 oy, paxta qo'lqop – 3 oy, karton – 2 oy, apelsin yoki banan qobig'i – 2-5 hafta, qog'oz sochiq – 2-4 hafta muddatda chiriydi.

Masalan, Filippinda 2000-yilda "Qattiq chiqindilarni ekologik boshqarish to'g'risida"gi qonun kuchga kirgandan so'ng ochiq chiqindixonalarni tashkil etish va boshqarish taqiqlangan. Barcha ochiq chiqindixonalar uch yilgacha boshqariladigan chiqindixonalarga aylantirilishi va boshqariladigan chiqindixonalar esa besh yil ichida yopilishi kerakligi belgilangan. Faqatgina chiqindilarni qayta ishlash natijasida hozil bo'lgan qoldiq chiqindilarni to'plash uchun sanitariya talablariga javob beradigan poligonlar qurilishiga ruxsat berilgan.

Shuningdek, Yevopaning ko'plab davlatlarida (Niderlandiya, Belgiya)da poligon solig'i joriy etilgan. Estoniyada 2009-yilda qayta ishlanmagan chiqindilarni ko'mish taqiqlangan va qat'iy jazo choralari o'rnatilgan.

2019-yildan Rossiyada ham qayta ishlanmagan chiqindilarni yoqish taqiqlangan.

Respublikamizda chiqindilarni yoqish esa poligonlarni o'zida amalga oshirilishi atrof-muhitga, aholi salomatligiga jiddiy xavf tug'dirmoqda.

Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasining 2019-yil 17-oktyabrdagi 12-son qarori bilan Qattiq maishiy chiqindi poligonlarini loyihalashtirish va ulardan foydalanish bo'yicha yo'riqnomada poligonlarda atmosferaga chiqarilayotgan tashlamalarni monitoring qilish yoki energiya olish maqsadida gazni faol ajratib olish tizimini o'rnatish maqsadga muvofiqligi keltirilgan xolos, majburiyat sifatida o'rnatilmagan.

Rivojlangan davlatlarda chiqindilarni yoqish va ulardan muqobil energiya manbalari olish usulidan keng foydalaniladi.


Jumladan, Fransiyada qayta ishlanmaydigan chiqindilarni yoqish uchun 130 ga yaqin zavodlar mavjud. O'z o'rnida yoqishda hosil bo'lgan kul yo'l qurilishida, jarayonda hosil bo'ladigan issiqlik esa uylarni issiqlik bilan ta'minlashda foydalaniladi. Ayrim korxonalar yer ostida joylashgan bo'lib, ular tutun, badbo'y hid tarqatmaydigan texnologiyalardan foydalanadi.

Shvetsiya har yili o'rtacha 461 kg chiqindilarni ishlab chiqaradi, ammo yiliga 2 mln tonnadan ortiq chiqindilarni yoqib yuboradigan yoqish dasturidan foydalanadi. Bu esa mamlakat chiqindilarining yarmini energiyaga aylantirishni ta'minlaydi, buning uchun WtE zavodlari (chiqindi-energetika, WtE) mavjud. Shvetsiyada chiqindilarni energiyaga aylantirish dasturi 1940-yilda boshlangan. Zamonaviy chiqindilarni yoqish zavodlari to'liq avtomatlashtirilgan va minimal darajada xodimlarni jalb qiladi. Chiqindilarni yoqish bo'yicha qoidalar ham ishlab chiqilgan. Shvetsiyada chiqindilarni xomashyo sifatida yoqish uchun sertifikatlangan 32 ta issiqlik zavodlari mavjud. Ularning


markazlashtirilgan issiqlik energiyasi bozoridagi ulushi 42% ni tashkil qiladi. Chiqindini yoqishdan hosil bo'lgan kuldani metallar ham olinadi. Hatto kanalizatsiyaga tashlanadigan organik moddalar ham energiyaga aylantiriladi, bunday chiqindilardan tarkibida metan bo'lgan biogaz, so'ngra shahar transporti uchun bioyoqilg'i ishlab chiqariladi. Natijada Shvetsiyada chiqindilar massasining atigi 1 foizi tashlanadi.

Xorijiy mamlakatlarda chiqindilarni qayta ishlash sohasida "funktional jihatdan bog'liq ishlab chiqarish va texnologik infratuzilma obektlari majmuasi" bo'lgan ekotexnoparklardan foydalanish ham keng tarqalgan bo'lib, ular chiqindilarni qayta ishlash darajasini oshirish, chiqindilarni utilizatsiya qilish hajmini qisqartirish, yangi ish o'rinlarini yaratishga xizmat qiladi. Masalan, mutaxassislarning fikriga ko'ra, Rossiya Federatsiyasida ekotexnoparklarning tashkil etilishi 2030-yilga kelib chiqindilarni qayta ishlash darajasini 10% dan 80% gacha oshirishga va qayta ishlangan mahsulotlarga bo'lgan talabni oshirishga yordam beradi.

O'zbekiston va Fransiyada chiqindilarni qayta ishlovchi korxonalar soni



O'zbekiston va Fransiyada chiqindilarni qayta ishlash: quvvat va korxonalar soni (tasdiqlangan ma'lumotlar asosida)



Xulosa

O'zbekistonda chiqindilarni qayta ishlash tizimini rivojlantirishda moliyaviy, infratuzilmaviy va institutsional omillar yetarli darajada shakllanmaganligi asosiy to'siqlardan biri bo'lib qolmoqda. Yillik qayta ishlash quvvatining pastligi, korxonalar

sonining cheklanganligi hamda mavjud texnik bazaning eskiligi mintaqaviy miqyosda kompleks infratuzilmani yaratishga to'sqinlik qilmoqda. Shu sababli sohada rivojlanish ko'p jihatdan xalqaro moliya institutlarining imtiyozli kreditlari, subsidiyalar va davlat tomonidan berilayotgan rag'batlar hisobiga amalga oshirilmoqda.

Xorijiy tajriba, xususan Fransiya, Shvetsiya, Xitoy kabi davlatlar misolida ko'rish mumkinki, chiqindilarni qayta ishlashni kengaytirish uchun "yashil xarid" siyosati, chiqindilarni boshqarish jamg'armalari, poligon solig'i, qayta ishlash majburiyatlari va energiya ishlab chiqarishga yo'naltirilgan yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu mexanizmlar qayta ishlangan mahsulotlarga talabni oshiradi, xususi sektorning bozorga kirishini rag'batlantiradi va ekologik barqarorlikni ta'minlaydi.

Shuningdek, rivojlangan mamlakatlarda chiqindilarni yoqish orqali energiya olish, kulni qayta ishlash, organik chiqindidan biogaz ishlab chiqarish kabi zamonaviy texnologiyalar keng joriy qilingan bo'lib, bu chiqindilar hajmini sezilarli darajada kamaytiradi. Uzbekistan sharoitida esa poligonlarga haddan tashqari tayanish va chiqindini yoqish jarayonida ekologik xavfsizlik choralarining yetarli emasligi atrof-muhit va aholining salomatligiga jiddiy xavf tug'dirmoqda.

FOYDALANILGAN MANBALAR :

<https://xs.uz/uz/post/chiqindilarni-qajta-ishlash-dolzarb-maummo-va-takliflar>

<file:///C:/Users/acer.com/Downloads/CAJEI+1025.pdf>

<https://stat.uz/uz/>

<https://www.google.com/search?q=Yashil+Iqtisodiyotda+chiqindini+qayta+ishlab+chiqarish&oq=Yashil+Iqtisodiyotda+chiqindini+qayta+ishlab+chiqarish&aqs=chrome..69i57.810j0j7&sourceid=chrome&ie=UTF-8>